

**GLOBAL IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIKNING
INNOVATSION OMILLARI**

Xalmatjanov Farxod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy

munosabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Anotatsiya: *Global iqtisodiyotda raqobatbardoshlik omillari mamlakatlarning davomli taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Ularni rivojlantirish orqali har bir davlat o'z o'rnini mustahkamlashi hamda xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.*

Kalit so'zlar: *Global, Innovatsiya, Texnologiyalar, Resurs, Raqobat, Milliy innovatsiya, Raqamli raqobatbardoshlik.*

Kirish

Raqobat – ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'yektlari o'rtasidagi murakkab munosabatni ifodalaydi. Raqobat - bozor sub'yektlari iqtisodiy manfaatlarning to'qnashuvidan iborat bo'lib, ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq nafilikka ega bo'lish uchun kurashni anglatadi. Iqtisodiyotda yuqori samarali investitsiya strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish uzoq muddatli iqtisodiy siyosatning asoslaridan biri bo'lib, u kompaniyaning tashqi va ichki bozorda barqaror mavqeini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasini barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalaridan biri, mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishdan iborat. Iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning ajralmas shartlaridan biri, iqtisodiyotni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish hisoblanadi. Zamonaviy rivojlanish bosqichida bu kabi vazifalarni hal etishni innovatsion faoliyatni jonlantirishga yo'naltirilgan



sharoitlarni yaratmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Innovatsion iqtisodiyotni qurishda sanoat korxonalari muhim rol o'ynaydi, ular kelgusi iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy iqtisodiy natijalarni yaratadi.

Asosiy qism: Iqtisodiyotni rivojlantirishning zamonaviy sharoitlarida sanoat korxonalari uchun innovatsiyaviy va texnologik taraqqiyotga erishish o'ta muhimdir, chunki faqat shu yo'l orqali sanoat korxonalarida innovatsion faollikni oshirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, samaradorlik va mehnat unumdorligin oshirish, shuningdek, ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiyotni sog'lomlashtirish va kelgusi rivojlanishi uchun sharoit yaratish innovatsion faoliyatni jonlantirish orqali amalga oshiriladi. Aynan shuning uchun, sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini jonlantirishga qaratilgan sharoitlarni yaratish, iqtisodiyotda samarali tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning muhim omillaridan biridir. Bundan tashqari sanoat korxonalarining innovatsion faolligi darajasini baholash va ushbu innovatsion faoliyat asosida uzoq muddatli strategik rivojlanish maqsadlariga erishish va istiqbolda ularning barqaror daromad olishini ta'minlashga qaratilgan zamon bilan hamnafas milliy innovatsiya tizimini shakllantirish dolzarb masalalar qatorida turadi.

Jahon raqamli raqobatbardoshlik reytingi uchta omilga tayanadi:

- Texnologiyani o'rganish va kashf qilish uchun zarur bo'lgan nomoddiy infratuzilmani qamrab oladigan bilim;
- Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish tempini aniqlaydigan texnologiya;
- Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyani amalga oshirishga tayyorlik darajasini o'rganuvchi "Kelajakka tayyorlik".

Masalan, Xitoy tadbirkorlik va innovatsiyalar uchun keng qamrovli harakatni amalga oshirdi. Xitoy 2025 tashabbusi bilan u jahon yetakchisiga aylanishni maqsad qilgan 10 ta asosiy sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlaydi. Boshqa



davlatlar ham o'zlarining raqamli kelajagi bo'yicha ulkan istiqbollarni shakllantirdilar: Vetnam 2030-yilga borib o'zining raqamli iqtisodiyoti YaIMning 30 foizini tashkil etishini istaydi, Vengriya esa 2030 yil oxiriga qadar Yevropaning raqamli texnologiyalar bo'yicha yetakchi 10 ta davlatidan biriga aylanish maqsadini belgilab oldi. Italiya raqamli tafovutni bartaraf etish, raqamli inklyuzivlikni rag'batlantirish va fuqarolar o'rtasida raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishni kuchaytirish uchun yangi "Repubblica Digitale" dasturini boshladi.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) O'zbekistonning 2024 va 2025-yil uchun iqtisodiy o'sishi prognozini pasaytirdi. Bu haqda bankning aprel oyidagi hisobotida ma'lum qilindi. Hisobotda qayd etilishicha, O'zbekiston iqtisodiyoti ikki yilda mos ravishda 5,5 va 5,6 foizda bo'ladi. 2023-yilda bu 6 foizni tashkil etgan. Inflyatsiya darajasi esa 2024-yilda 10 foizni, bir yildan keyin esa 9,5 foizda bo'lishi kutilmoqda. O'sish 2024-yilda sekinlashishi va 2025-yilda biroz ko'tarilishi prognoz qilinmoqda, chunki yuqori tartibga solinadigan narxlar uy xo'jaliklarining daromadlari o'sishini cheklaydi va talabni kamaytiradi. **Prognozlarga ko'ra o'sish, ayniqsa, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligida zaiflashadi**, chunki boshqariladigan narxlarning oshishi real ichki talabning o'sishini cheklaydi. 2024-yilda u 5,5 foizgacha sekinlashadi, keyin 2025-yilda 5,6 foizgacha ko'tariladi.¹

Xulosa: Global iqtisodiyotda raqobatbardoshlik omillari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tizimdir. Inson resurslari, innovatsiyalar, iqtisodiy siyosatlar, xalqaro savdo va ijtimoiy barqarorlik kabi omillar muvaffaqiyatli iqtisodiyotning asosini tashkil etadi. Mamlakatlar ushbu omillarni hisobga olib, o'zlarini global raqobatda muvaffaqiyatli qilish uchun strategiyalar ishlab chiqishlari zarurdir. O'zbekiston iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni oshirish uchun ko'p tomonlama yondashuv talab etiladi. Bularning barchasi birgalikda ishlaganda mamlakatning iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va xalqning farovonligini oshiradi. Raqobatbardosh iqtisodiyot yaratishda davlatning roli katta bo'lishi bilan birga, xususiy sektor ham faol ishtirok etishi zarur.

¹ <https://www.researchgate.net>



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1. <https://www.researchgate.net>**
- 2. <https://www.Ziyonet.com>**